XALQ DEPUTATLARI PAYARIQ TUMAN KENGASHI
Q A R O R I

2022 - yil 30 - dekabr VI-74-323-7-100-K/22 Payariq tumani hokimligi

Xalq deputatlari Payariq tumani Kengashining 2022-yil 7-yanvardagi “Payariq tumani mahalliy byudjetining 2021-yildagi ijrosi hamda 2022-yilgi mahalliy byudjetning belgilangan asosiy parametrlari to‘g‘risida”gi VI-49-3-7-100-K/22-sonli Qaroriga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 147-moddasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining (02-PA 1/1-1535-sonli) ko‘rsatma xati, O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti nomiga yozilgan qo‘shma axboroti, xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining 2022-yil 29-dekabrdagi (VI-79-249-7-0-K/22-sonli) qarori hamda tuman hokimligi moliya bo‘limining 2022-yil 26-dekabrdagi (01-02-32/468-sonli) xatini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 24-moddasiga asosan, xalq deputatlari tuman Kengashining VI chaqiriq, yetmish to‘rtinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari U.Ollanov hamda tuman hokimligi moliya bo‘limi mudiri K.Narimanovning xalq deputatlari Payariq tumani Kengashining 2022-yil 7-yanvardagi “Payariq tumani mahalliy byudjetining 2021-yildagi ijrosi hamda 2022-yilgi mahalliy byudjetning belgilangan asosiy parametrlari to‘g‘risida”gi VI-49-3-7-100-K/22-sonli Qaroriga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risidagi takliflari ma’qullansin.

2. Xalq deputatlari Payariq tumani Kengashining 2022-yil 7-yanvardagi “Payariq tumani mahalliy byudjetining 2021-yildagi ijrosi hamda

2022-yilgi mahalliy byudjetning belgilangan asosiy parametrlari to‘g‘risida”gi VI-49-3-7-100-K/22-sonli Qarorining 1-ilovasidagi 2022-yil uchun tuman mahalliy byudjeti daromadlarining prognoz ko‘rsatkichlari va 2-ilovasidagi 2022-yil uchun tuman mahalliy byudjetidan hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlariga 1 va 2-ilovalarga muvofiq qo‘chimcha va o‘zgartirishar kiritilsin va ilovadagi tahrirda bayon etilsin.

3. Tuman hokimligi moliya bo‘limi mudiri (K.Narimanov)ga Payariq tumani mahalliy byudjetining 2022-yilgi daromadlari hamda xarajatlari rejalariga Samarqand viloyati hokimligi Moliya bosh boshqarmasini xabardor qilgan holda tegishli o‘zgartirishlar kiritilishini ta’minlasin.

4. Tuman hokimligi axborot xizmati rahbari (D.Hamidov) hamda “Payariq hayoti” gazetasi bosh muharriri (A.Tavboyev) ushbu qarorni rasmiy e’lon qilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirsin.

5. Mazkur qaror rasmiy manbalarda e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (L.Kazakbayev) hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (U.Ollanov) zimmalariga yuklatilsin.

Xalq deputatlari Payariq tumani Kengashi raisi **Z.Ergashev**

Xalq deputatlari Payariq tuman
Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-74-323-7-100-K/22-son qaroriga
1-ilova

Xalq deputatlari Payariq tumani Kengashining 2022-yil 7-yanvardagi “Payariq tumani mahalliy byudjetining 2021-yildagi ijrosi hamda 2022-yilgi mahalliy byudjetning belgilangan asosiy parametrlari to‘g‘risida”gi VI-49-3-7-100-K/22-sonli Qarorining 1-ilovasiga kiritilayotgan o‘zgarishlar va qo‘shimchalar:

1. Xalq deputatlari Payariq tumani Kengashining 2022-yil 7-yanvardagi “Payariq tumani mahalliy byudjetining 2021-yildagi ijrosi hamda 2022-yilgi mahalliy byudjetning belgilangan asosiy parametrlari to‘g‘risida”gi VI-49-3-7-100-K/22-sonli Qarorining 1-ilovasi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“2022-yil uchun Payariq tumani mahalliy byudjeti daromadlari prognoz ko‘rsatkichlari”

Ming so‘mda

T/r	Daromadlar turlari	Jami
JAMI		**136 264 533**
1	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	38 307 850
2	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	1 521 330
3	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	6 665 200
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	15 141 000
5	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	1 544 000
6	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	1 960 853
7	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qaridan foydalanganlik uchun soliq	568 300
8	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	1 819 600
9	Yuridik shaxslar yer solig‘i	5 478 300
10	Yakuniy istemolchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	12 734 100
11	Korxonalar aylanmasidan soliq	6 515 900

12	Yig‘imlar	2 588 000
13	Boshqalar	0
14	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	58 100
15	Alkogol mahsulotlari, shu jumladan, pivo	15666000
16	Mobil aloqa xizmati	8925000
17	Sigaret uchun aksiz solig‘i	16801000

Xalq deputatlari Payariq tuman
Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-74-323-7-100-K/22-son qaroriga
2-ilova

Xalq deputatlari Payariq tumani Kengashining 2022-yil 7-yanvardagi “Payariq tumani mahalliy byudjetining 2021-yildagi ijrosi hamda 2022-yilgi mahalliy byudjetning belgilangan asosiy parametrlari to‘g‘risida”gi VI-49-3-7-100-K/22-sonli Qarorining 2-ilovasiga kiritilayotgan o‘zgarishlar va qo‘shimchalar:

1. Xalq deputatlari Payariq tumani Kengashining 2022-yil 7-yanvardagi “Payariq tumani mahalliy byudjetining 2021-yildagi ijrosi hamda 2022-yilgi mahalliy byudjetning belgilangan asosiy parametrlari to‘g‘risida”gi VI-49-3-7-100-K/22-sonli Qarorining 2-ilovasi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“2022-yil uchun Payariq tumani mahalliy budjetidan hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari”

Ming so‘mda

T/r	Ko‘rsatkichlar	Miqdori
	Payariq tumani mahalliy byudjeti xarajatlari miqdori, Jami	**377 555 893**
1	Tuman maktabgacha ta’lim bo‘limi	41 288 540
2	Tuman xalq ta’limi bo‘limi	15 685 486
3	Tuman tibbiyot birlashmasi	122 442 828
4	Tuman madaniyat bo‘limi	4 613 682
5	Tuman sportni rivojlantirish bo‘limi	5 825 028
6	Tuman aholi bandligiga ko‘maklashish markazi	784 534
7	Tuman veterinariya va choravachilikni rivojlantirish bo‘limi	2 835 551
8	Tuman irrigatsiya bo‘limi	2 418 568
9	Tuman qishloq xo‘jaligi bo‘limi	1 920 880
10	Tuman hokimligi moliya bo‘limi	1 947 117

11	Tuman hokimligi (Vazirlar Mahkamasi huzuridagi muassasalar)	162703551
12	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Payariq tumanidagi muassasalar	673 975
13	Xalq deputatlari tuman Kengashi	190 499
14	O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limi	4 683 988
14	Tuman oila va xotin-qizlar bo‘limi	2 289 990
15	Tuman mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi	7 251 676